

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**DAVLAT TA’LIM STANDARTLARI VA DAVLAT TA’LIM TALABLARINI ISHLAB
CHIQISH HAMDA JORIY ETISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-
TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta’lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 20-apreldagi PQ-128-son **qaroriga** muvofiq davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablarini ta’lim sohasidagi xalqaro standartlar talablari asosida ishlab chiqish va joriy etish tartibini belgilash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilarni nazarda tutuvchi Davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibi to‘g‘risidagi nizom **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin:

davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablarining maqsadi, vazifalari va prinsiplari;

davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablarini ishlab chiqish uchun qo‘yiladigan talablar hamda ta’limning standartlashtiriladigan turlari;

davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablarini, malaka talablari, namunaviy (tayanch) o‘quv reja va dasturlari loyihalarini ishlab chiqish, tasdiqlash va joriy etish tartibi.

2. Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi:

a) Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan birgalikda uch oy muddatda ilg‘or xorijiy davlatlarning tajribalari asosida ta’lim turlarining uzluksizligi va uzviyligini ta’minlagan holda maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limning o‘quv reja va dasturlariga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqsin va belgilangan tartibda tasdiqlasin;

b) 2024-yil 1-avgustga qadar quyidagilarni tasdiqlashni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritсин:

maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim turlari o‘quv dasturlarining uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash konsepsiyasi;

ta’lim natijalarini baholash, ta’lim sifati va samaradorligini monitoring qilish, ta’lim siyosatida dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish amaliyotini joriy etish maqsadida umumiy o‘rta ta’limda baholash konsepsiyasi;

v) 2024-yil 1-oktabrga qadar ta’lim sohasidagi atamalarning xalqaro darajada qabul qilingan atamalarga muvofiqligini ta’minlagan holda “Uzluksiz ta’lim tizimining izohli lug‘ati”ni ishlab chiqsin va uni muntazam ravishda yangilab borsin;

g) ta’lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan tahliliy va amaliy tadqiqotlar o‘tkazsin hamda tadqiqotlar natijalarini muntazam ravishda ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borsin.

3. Belgilansinki:

a) davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari, o‘quv reja va dasturlarini ishlab chiqishda quyidagilar inobatga olinadi:

tegishli ta’lim bosqichi yakunida ta’lim oluvchilarda shakllanishi lozim bo‘lgan kompetensiyalarni davlat, jamiyat va mehnat bozori talablarini inobatga olgan holda belgilash;

ta’lim turlari uzluksizligi va uzviyligini ta’minlash, maqsad va vazifalarni ta’lim natijadorligiga yo‘naltirish;

ta’lim oluvchilarda atrof muhitni asrab-avaylash va muqobil energiya manbalaridan samarali foydalanish mas’uliyatini shakllantirish;

b) ta’lim natijalarining xalqaro miqyosda tan olinishini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasida mavjud ta’lim turlari YUNESKOning “Ta’limning xalqaro standart tasniflagichi” darajalari bilan muvofiqlashtiriladi.

4. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bilan birgalikda 2024-yil 1-avgustga qadar Ta’lim sohasida islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan quyidagilarni nazarda

tutuvchi “dts.uz” — Davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablarining yagona ochiq muhokama portalini ishga tushirsin;

davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablari, shuningdek, malaka talablarini 15 kun muddatda jamoatchilik muhokamasidan o’tkazish;

davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablarining registri va ularning matnlari bilan erkin tanishish;

davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablariga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida takliflar berish;

“ochiq maydon” tamoyili asosida va real vaqt rejimida davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablarini ishlab chiqish va tasdiqlash.

5. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida ta’lim tashkilotlari bo’lgan vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2024/2025 o’quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich ushbu qaror asosida tegishlicha ta’lim turlari bo’yicha davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari, o’quv reja va o’quv dasturlarini belgilangan tartibda ishlab chiqilishi va tasdiqlanishini ta’minlasin.

6. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi oliy ta’lim tashkilotlariga kirish imtihonlarining sinov materiallarini umumiy o’rta, o’rta maxsus va professional ta’limning yangilangan davlat ta’lim standartlari, o’quv reja va o’quv dasturlariga muvofiq tayyorlasin.

7. O’zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlari [2-ilovaga](#) muvofiq o’z kuchini yo’qotgan deb hisoblansin.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O’zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vaziri H.O’. Umarova hamda oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri Q.A. Sharipov zimmasiga yuklansin.

O’zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2024-yil 27-mart,
157-son

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-martdagi 157-son [qaroriga](#)
1-ILOVA

Davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibi to’g’risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom ta’limning barcha turlari uchun davlat ta’lim standartlari, shu jumladan, maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti hamda davlat ta’lim talablarini (keyingi o’rinlarda — ta’lim standartlari) ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo’llaniladi:

davlat ta’lim standartlari — davlat tomonidan ta’limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

davlat ta’lim talablari — ta’limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek, ta’lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo’yiladigan majburiy talablar;

maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti — ta’lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha ta’lim tashkilotini qurish va jihozlashga, shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarning sog’lom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy talablar majmui;

o’qitish natijalari — o’quv jarayonining ma’lum bosqichi yakuni bo’yicha ta’lim oluvchi baholanadigan kompetensiyalar.

3. Ta'lim standartlari ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini tashkil etish va baholash uchun asos hisoblanadi.

4. Ta'lim standartlari ushbu Nizomga 1-ildovada keltirilgan sxemaga muvofiq ishlab chiqiladi va joriy etiladi.

2-bob. Ta'lim standartlarining maqsadi, asosiy vazifalari va prinsiplari

5. Ta'lim standartlarining maqsadi — ta'lim va o'qitish sifatiga, ta'lim mazmuniga, ta'lim oluvchilar hamda ularning tayyorgarlik darajasiga, ta'lim darajasidagi kompetensiyalar va natijalarga, beriladigan malakalarga, talab qilinadigan o'quv yuklamasi va faoliyati hajmiga va baholash mexanizmlariga qo'yiladigan talablarni belgilash hisoblanadi.

6. Ta'lim standartlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

ta'limning mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

ta'limning turlari, mazmuni, ta'lim va tarbiyaning o'zaro bog'liqligi, ta'lim tizimida uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash;

o'qitish natijalarini baholash tartibi, ta'lim va tarbiya sifatini nazorat qilishni takomillashtirish;

ta'lim turlari, bosqichlarining o'zaro uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash;

milliy standartlar talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga nisbatan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash.

7. Ta'lim standartlarining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

davlat, jamiyat, mehnat bozori va shaxs ehtiyojlariga mosligi;

ta'lim va tarbiyaning yaxlitligi, barcha uchun teng va kafolatlanganligi;

ta'lim turlari va bosqichlari o'rtasida uzluksizlik va ta'lim mazmuni uzviyligining ta'minlanganligi;

gender tenglik va inklyuziv ta'lim olish huquqlarining ta'minlanganligi;

ta'lim oluvchilarga yo'naltirilganligi va ta'lim oluvchilar shaxsi, ularning intilishlari, qobiliyatlari hamda qiziqishlarining inobatga olinganligi;

O'zbekiston ta'lim siyosatini hisobga olgan holda xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasidagi tajribalaridan foydalanilganligi.

8. Quyidagilar ta'lim standartlarini ishlab chiqishga qo'yiladigan asosiy talablar hisoblanadi:

madaniy va tarixiy meros an'analari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, davlat talablari va jamiyat ehtiyojlarini hisobga olish;

ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, vatanga fidoyilik va milliy g'urur hissini singdirish hamda o'z majburiyatlarini mas'uliyat bilan bajarish bo'yicha zarur bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish;

ta'lim oluvchilar ongiga Vatan tuyg'usini singdirish;

kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;

ta'lim oluvchilarning o'qitish natijalariga aniq talablarni belgilash hamda uning me'yorlari va talablari buzilishining oldini olish;

ta'lim oluvchilarda atrof muhitni asrab-avaylash va muqobil energiya manbalaridan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;

ta'lim turlari va bosqichlarini xalqaro miqyosda tan olingan mezonlar bo'yicha ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash;

ta'lim oluvchilarning qobiliyat va ehtiyojlari asosida individual rivojlanish hamda differensial yondashuv asosida ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish;

variativ va invariativ komponentlarni joriy etish orqali ta'lim jarayonini tizimlashtirish;

mehnat bozori talablariga muvofiq kadrlarni tayyorlashda xalqaro tajribani inobatga olish.

3-bob. Ta'limning standartlashtiriladigan turlari

9. Ta'lim turlari bo'yicha quyidagi ta'lim standartlari ishlab chiqiladi:

maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti;

umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim, oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari;

oliy ta'limdan keyingi ta'limning, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning, shuningdek qo'shimcha ta'limning davlat ta'lim talablari.

10. Ta'lim turlari bo'yicha davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablarini ta'lim sohasidagi xalqaro standartlar talablariga moslashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining ta'lim bosqichlari YUNESKOning "Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (International Standard Classification of Education (ISCED-2011))" (keyingi o'rinlarda — Xalqaro tasniflagich) darajalari bilan mazkur Nizomga [2-ilovaga](#) asosan muvofiqligi ta'minlanadi.

11. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti Xalqaro tasniflagichning 0-darajasidagi (kichik yoshdagi bolalar ta'limi) belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqiladi.

Ushbu standart erta kognitiv, jismoniy, ijtimoiy va emotsional kabi shakllanishi lozim bo'lgan ko'nikmalar yagona shaklda ishlab chiqilishi, bolalarni boshlang'ich ta'limga qabul qilish hamda akademik tayyorlash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilishi kerak.

12. Boshlang'ich ta'limning davlat ta'lim standarti Xalqaro tasniflagichning 1-darajasidagi (boshlang'ich ta'lim) belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqiladi va I — IV sinflarni qamrab oladi.

Mazkur standart o'qish, yozish, asosiy matematik ko'nikmalar (savodxonlik va hisoblash), shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy sohalarini o'rganish va tushunish uchun mustahkam poydevor yaratishga qaratiladi.

13. Tayanch o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti Xalqaro tasniflagichning 2-darajasidagi (o'rta ta'limning birinchi bosqichi) belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqiladi va V — IX sinflarni qamrab oladi. Tayanch o'rta ta'lim bitiruvchilari (IX sinf) O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasining 2-malaka darajasida belgilangan talablarga javob berishi kerak. Tayanch o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti boshlang'ich ta'lim natijalarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi.

Ushbu standart hayot davomida ta'lim olish va inson kapitalini rivojlantirish poydevorini yaratish, umumta'lim fanlari bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirishga qaratiladi.

14. O'rta ta'lim, o'rta maxsus ta'limning davlat ta'lim standartlari Xalqaro tasniflagichning 3-darajasidagi (o'rta ta'limning ikkinchi bosqichi) belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqiladi. Mazkur bosqichning davlat ta'lim standartlari tayanch o'rta ta'lim bosqichi natijalariga asoslanadi.

O'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim bosqichi bitiruvchilari (XI sinf) O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasining 3-malaka darajasida belgilangan talablarga javob berishi kerak. Bunda o'rta ta'lim bosqichida umumta'lim fanlariga ustuvorlik berilgan holda qisqa muddatli kasbga tayyorlash dasturlari ham o'qitiladi.

15. Boshlang'ich professional ta'limning davlat ta'lim standarti Xalqaro tasniflagichning 3-darajasidagi (o'rta ta'limning ikkinchi bosqichi) belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqiladi. Tayanch o'rta ta'limning IX sinflari bitiruvchilarini qamrab oladi.

Boshlang'ich professional ta'lim bosqichi bitiruvchilari (XI sinf) O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasining 3-malaka darajasida belgilangan talablarga javob berishi kerak.

Boshlang'ich professional ta'limning davlat ta'lim standarti tayanch o'rta ta'lim natijalarini hisobga olgan holda, ish beruvchilar bilan hamkorlikda ishlab chiqiladi hamda umumta'lim fanlari bilan birga Milliy malaka ramkasining 3-malaka darajasiga tegishli bo'lgan kasblar bo'yicha o'qitiladi.

16. O'rta professional ta'limning davlat ta'lim standarti Xalqaro tasniflagichning 4-darajasidagi (umumiy o'rta ta'limdan keyingi ta'lim) belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqiladi. O'rta professional ta'lim bosqichi bitiruvchilari O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasining 4-malaka darajasida belgilangan talablarga javob berishi kerak.

Ushbu standart o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim natijalarini hisobga olib, ish beruvchilar bilan hamkorlikda ishlab chiqiladi. Ta'lim oluvchilarni mehnat bozoriga tayyorlashga qaratilgan hamda Milliy malaka ramkasining 4-malaka darajasiga tegishli bo'lgan kasblar va mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim beriladi.

17. O'rta maxsus professional ta'limning davlat ta'lim standarti Xalqaro tasniflagichning 5-darajasidagi (oliy ta'limning qisqa sikli) belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqiladi. O'rta maxsus professional ta'lim bosqichi bitiruvchilari O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasining 5-malaka darajasida belgilangan talablarga javob berishi kerak.

Mazkur standart o'rta ta'lim, boshlang'ich va o'rta professional ta'lim natijalarini hisobga olgan holda, ish beruvchilar bilan hamkorlikda ishlab chiqiladi. Milliy malaka ramkasining 5-malaka darajasiga tegishli bo'lgan kasblar va mutaxassisliklar bo'yicha o'qitiladi.

18. Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti Xalqaro tasniflagichning 6-darajasidagi (bakalavriat yoki unga tenglashtirilgan) va 7-darajasidagi (magistratura yoki unga tenglashtirilgan) belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqiladi.

Bakalavriat ta'lim bosqichi umumiy o'rta, o'rta maxsus va boshlang'ich professional ta'lim natijalariga, magistratura ta'lim bosqichi bakalavriat ta'lim natijalariga asoslanadi. Bakalavriat va magistratura ta'lim bosqichlari tegishli O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi va 7-malaka darajasiga muvofiq lashtiriladi.

19. Oliy ta'limdan keyingi ta'limning davlat ta'lim talabi Xalqaro tasniflagichning 8-darajasidagi (doktorlik tadqiqotlari yoki unga tenglashtirilgan) belgilangan talablarga muvofiq tadqiqotchilarning ilmiy tadqiqotlarda yuqori malakaga erishish uchun mo'ljallangan bilim, ko'nikma, kompetensiyalarga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Mazkur ta'lim bosqichi magistratura ta'lim natijalariga asoslanadi. Ta'lim bosqichi bitiruvchilari O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasining 8-malaka darajasida belgilangan talablarga javob berishi kerak.

20. Kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning davlat ta'lim talabi orqali xodimlarda qo'shimcha kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi hamda ular kasb yoki mutaxassisligi bo'yicha kasbiy rivojlantiriladi.

Kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari bitiruvchilari O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasining 3 — 8-malaka darajasida belgilangan talablarga javob berishi kerak.

21. Qo'shimcha ta'limning davlat ta'lim talabi umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari o'quvchilarining iste'dodi va qobiliyatini rivojlantirishga, ma'naviy ehtiyojlarini qanoatlantirishga va kasb-hunar to'g'risidagi boshlang'ich ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi.

4-bob. Ta'lim standartlari ishlab chiqish, tasdiqlash va joriy etish

22. Ta'lim standartlari tegishliligi bo'yicha Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (keyingi o'rinlarda — vakolatli respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari) tomonidan ishlab chiqiladi.

Maktabgacha, umumiy o'rta va qo'shimcha ta'lim turlari bo'yicha ta'lim standartlarining (davlat talablari) loyihalari Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi (keyingi o'rinlarda — Markaz) tomonidan tasdiqlanadigan talablar asosida ishlab chiqiladi.

23. Ta'lim standartlarining matni lo'nda, sodda va ravon tilda bayon etiladi. Hujjatning har bir bandi to'liq va yakunlangan mazmunga ega bo'lishi lozim.

Ta'lim standartlarida foydalaniladigan tushunchalar va atamalar turlicha izohlash imkoniyatini istisno etadigan, ularning qonunchilik hujjatlarida qabul qilingan ma'nosiga muvofiq yagona shaklda qo'llaniladi. Standartda qo'llaniladigan atamalar va qisqartmalar ta'riflari uning o'zida keltiriladi.

24. Ta'lim standartining matni mantiqiy ketma-ketlik nuqtai nazaridan bo'limlar, kichik bo'limlar, bandlar, kichik bandlarga bo'linishi mumkin. Bo'limlar, kichik bo'limlar, bandlar va kichik bandlar ketma-ketlikda arab raqamlari bilan raqamlanadi.

25. Ta'lim standartining matni A4 formatidagi qog'oz varag'ida joylashtiriladi. Tartib raqami sahifaning pastki o'rta qismida joylashtiriladi va arab raqamlari bilan belgilanadi. Standart, qoida tariqasida, Microsoft Word redaktoridan va quyidagi parametrlardan foydalangan holda tayyorlanadi:

“Times New Roman” 12 o'lchamli shrift, sahifaning chap, o'ng va yuqori hoshiyasi 2 sm, pastki hoshiyasi 2,5 sm; xatboshining satr boshi 1,5 sm;

matn satrlari oralig‘i 1 interval; bo‘lim va kichik bo‘limlar sarlavhalari hamda jadvallar matndan matbaa dizaynining maqbulligidan kelib chiqib, 1 intervaldan yuqori miqdorda ajratilishi mumkin.

26. Ta‘lim standarti davlat tilida tasdiqlanadi va chop etiladi. Standart boshqa tillarga faqat uni tasdiqlovchi vakolatli respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan belgilangan tartibda tarjima qilinadi.

27. Ta‘lim standarti matn tilidan qat‘i nazar, hujjat nomining davlat tilidagi quyidagi qisqartirishlari bilan belgilanadi:

O‘zbekiston Davlat ta‘lim standarti (O‘zbekiston Davlat Ta‘lim Standarti) — O‘zDTSt, interval, tartib raqami, ikki nuqta ajratish belgisi, tasdiqlash yili (masalan: O‘zDTSt xxxx: 2024).

28. Ta‘lim standartlari vakolatli respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, pedagoglar, ota-onalar va boshqa manfaatdor tomonlar ishtirokida aprobatsiyadan o‘tkaziladi. Aprobatsiya natijasiga ko‘ra ta‘lim standartlari samaradorligi to‘g‘risida ma‘lumotlarni to‘plash va amalga oshirishning salbiy oqibatlari xavfini minimallashtirish uchun monitoring va baholash mexanizmlari joriy etiladi.

29. Zaruratga ko‘ra yangi tahrirda ishlab chiqilgan ta‘lim standartlari loyihasi yoki unga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi loyiha (keyingi o‘rinlarda — loyiha) vakolatli respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish uchun ta‘lim standartlarining yagona ochiq muhokama portaliga 15 kun muddatga joylashtiriladi.

30. Loyihaning jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilishini ta‘minlash vakolatli respublika ijro etuvchi hokimiyat organining rahbari zimmasiga yuklanadi.

31. Jamoatchilik va mutaxassislar muhokamasi muddati tugagach, muhokama jarayonida kelib tushgan barcha taklif va e‘tirozlar loyihani ishlab chiquvchi vakolatli respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan ko‘rib chiqiladi hamda Markaz tomonidan 10 kun muddatda belgilangan talablarga muvofiqligi yuzasidan tegishli xulosa beriladi.

Muhokama jarayonida kelib tushgan taklif va e‘tirozlar asosida loyiha qayta ko‘rib chiqiladi hamda maqbul deb topilgan taklif va e‘tirozlar loyiha matniga kiritiladi.

32. Ta‘lim standartlari mazkur Nizomga 3-ilovada keltirilgan namunaga muvofiq ishlab chiqiladi.

33. Ta‘lim standartlari asosida ta‘lim turlari va bosqichlari bo‘yicha tegishlicha malaka talablari, o‘quv reja va dasturlari yoki ta‘lim dasturlari ishlab chiqiladi.

34. Ta‘lim tashkilotlaridagi malaka talablari, o‘quv reja va dasturlarining mazmuni, ularni ishlab chiqish hamda joriy etish tartibi tegishliligi bo‘yicha vakolatli respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan belgilanadi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

35. Ta‘lim standartlari tizimida ta‘lim tashkilotlari bo‘lgan vazirlik va idoralar, ularning tarkibiy va hududiy bo‘linmalari hamda ta‘lim standartlari asosida ta‘lim faoliyatini olib boradigan ta‘lim tashkilotlari tomonidan ijro etilishi majburiy hisoblanadi.

36. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

Davlat ta‘lim standartlari va davlat ta‘lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibi to‘g‘risidagi
nizomga
1-ILOVA

Ta‘lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish

SXEMASI

Bosqichlar	Ijrochilar	Tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Maktabgacha va maktab ta‘limi	1. Davlat ta‘lim standartlari va davlat ta‘lim talablari loyihasini (ta‘lim	Zaruratga ko‘ra

	vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (vakolatli respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari)	standartlari) belgilangan tartibda ishlab chiqadi. 2. Ta'lim standartlarini jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish uchun "dts.uz" muhokama portaliga joylashtiradi.	15 kun muddatda
2-bosqich	Vakolatli respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari	Ta'lim tashkilotlari, nodavlat sektor vakillari, mutaxassislar va ekspertlar ishtirokida ta'lim standartlari muhokamasini tashkil etadi.	Zaruratga ko'ra
3-bosqich	Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi	Ta'lim standartlarini belgilangan talablarga muvofiqligi yuzasidan xulosa beradi.	10 kun muddatda
4-bosqich	Vakolatli respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari	Ta'lim standartlarini belgilangan tartibda tasdiqlaydi.	Belgilangan muddatda
5-bosqich	Vakolatli respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari	Ta'lim standartlarini vazirlik va idoralarning tizimidagi tashkilotlarga platforma orqali yuboradi.	Tasdiqlangandan so'ng 3 kun muddatda

Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibi to'g'risidagi
nizomga
2-ILOVA

O'zbekiston Respublikasining ta'lim bosqichlari va YUNESKOning "Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (International Standard Classification of Education (ISCED-2011))" darajalari o'rtasidagi muvofiqlik jadvali

ISCED-2011 darajalari	ISCED-2011 ta'lim dasturlari	O'zbekiston Respublikasining ta'lim bosqichlari
0	Kichik yoshdagi bolalar ta'limi	Maktabgacha ta'lim va tarbiya
1	Boshlang'ich ta'lim	Boshlang'ich ta'lim (I — IV sinflar)
2	O'rta ta'limning birinchi bosqichi	Tayanch o'rta ta'lim (V — IX sinflar)
3	O'rta ta'limning ikkinchi bosqichi	O'rta ta'lim (X — XI sinflar) O'rta maxsus ta'lim Boshlang'ich professional ta'lim
4	Umumiy o'rta ta'limdan keyingi ta'lim	O'rta professional ta'lim
5	Oliy ta'limning qisqa sikli	O'rta maxsus professional ta'lim
6	Bakalavriat yoki unga tenglashtirilgan	Bakalavriat

7	Magistratura yoki unga tenglashtirilgan	Magistratura
8	Doktorlik tadqiqotlari yoki unga tenglashtirilgan	Oliy ta'limdan keyingi ta'lim: tayanch doktorantura (Doctor of Philosophy) (PhD); doktorantura (Doctor of Science) (DSc).
9	Tasniflanmaydi	Kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda qo'shimcha ta'lim

Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibi to'g'risidagi
nizomga
3-ILOVA

Ta'lim standartlarining namunaviy tuzilishi

1. Umumiy qoidalar

Bo'limda tegishli darajadagi ta'limning umumiy maqsadi, vazifalari, nazariy asoslari, shu jumladan, ta'lim oluvchilar tomonidan egallanishi kerak bo'lgan ta'lim natijalari, shuningdek, o'quv rejasi va ta'lim oluvchilarni baholash bo'yicha ko'rsatmalarning qisqacha mazmuni batafsil bayon qilinadi.

2. Asosiy maqsadlar va rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari

Ushbu bo'limda o'quv dasturining mazmuni bo'yicha ta'lim oluvchilarning tegishli darajada ta'lim olishda ega bo'lishi kutilayotgan bilim, ko'nikma va malakalar bo'yicha erishilishi kerak bo'lgan asosiy strategik maqsadlarning qisqacha mazmuni bayon qilinadi.

Zarur bo'lganda, mehnat bozorining dolzarbligi yoki uning milliy strategik ustuvorliklariga aloqadorligi to'g'risida eslatmalar beriladi hamda asbob-uskunalar va materiallar ro'yxatini o'z ichiga qamrab olgan ma'lumotlar aks ettiriladi.

Bo'limda tegishli ta'lim darajasida kutilayotgan ta'limni yaxshilashga ko'maklashish uchun mo'ljallangan pedagogik yondashuv bo'yicha ko'rsatmalarni, jumladan, o'quv xonasiga qo'yiladigan tashkiliy talablar, innovatsion o'quv-uslubiy materiallarni yaratish, o'quv-uslubiy yordamni kuchaytirish.

3. Ta'lim natijalari

Ushbu bo'limda barcha darajalarda qo'llaniladigan spiral yondashuv bo'yicha batafsil taqsimlangan ta'limning tegishli darajasida ta'lim oluvchilar tomonidan namoyon etilishi kerak bo'lgan asosiy kompetensiyalarning tafsilotlari bayon qilinadi. Shu bilan birga, tegishli ta'lim natijalariga misollar keltiriladi.

4. O'qitish metodikasi

Ushbu bo'limda o'qitish usullari va ta'lim texnologiyalari, shu jumladan, innovatsion yondashuvlar haqida batafsil ma'lumotlar beriladi.

5. O'quv dasturi, o'quv mavzularining yuklamasi, hajmi va taqsimoti

Ushbu bo'lim o'quv soatlari hajmining tafsilotlarini o'z ichiga oladi.

O'quv soatlari ta'lim tizimining har bir bosqichida fanni o'qitish uchun o'quv rejasiga kiritiladi.

Shuningdek, mazkur bo'limda tegishli ta'lim darajalarining fanlararo integratsiyasi, o'qitish va o'rganish bo'yicha batafsil eslatmalar bo'ladi.

6. O'qitish natijalarini baholash

Ushbu bo'lim o'quv jarayonining muhim va zarur tarkibiy qismi bo'lib, u ta'limning bosqichlarida ta'lim oluvchilar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va xulosa qilish imkonini beradi. Baholash va uning mazmun-mohiyati, baholashdagi yondashuvlar, baholash

maqsadlari, tamoyillari, turlari, mazmuni (domen, subdomen, konstrukt, baholash indikatorlari), formati, mezonlari, metodikasi, vositalari va baholashga qo'yilgan talablar ta'lim jarayonining barcha subyektlari — ta'lim tashkiloti ma'muriyati, o'qituvchilar, ota-onalar va ta'lim oluvchilar uchun tushunarli tarzda bayon etiladi. Bu ta'limni baholash tizimiga mos kelishi kerak.

7. Monitoring va baholash

Ushbu bo'limda har bir fan bo'yicha, har bir ta'lim darajasida ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishi va yutuqlarini monitoring qilish va baholash haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Monitoring ta'lim sifatini baholash va nazorat qilishning uzluksiz jarayoni sifatida belgilanib, bu jarayon ta'lim holatini kuzatish, baholash va istiqbollari belgilashda muhim hisoblanadi.

Monitoringda ta'lim jarayonining borishi, uslubiy va tashkiliy jihatdan ta'minlanganligi kuzatiladi, tahlil qilinadi, baho beriladi va ta'limdagi sifat ko'rsatkichlari aniqlanib, xulosa qilinadi hamda istiqboldagi o'zgarishlar belgilanadi.

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-martdagi 157-son qaroriga
2-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining o'z kuchini yo'qotgan deb e'tirof etilayotgan ayrim qarorlari

RO'YXATI

1. Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida" 1998-yil 5-yanvardagi 5-son qarori.

2. Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalari reytingini aniqlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 3-iyundagi 345-son qaroriga 3-ilovaning 2-bandi.